

O'ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL SOLIQ MEXANIZMLARINING ESG RIVOJLANISHI VA IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, resurslar cheklanganligi va ekologik xavfsizlik masalalarining keskinlashuvi sharoitida iqtisodiy o'sishning an'anaviy modeli kun sayin qayta ko'rib chiqilmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil fiskal siyosati, xususan, yashil soliq tizimi muhim instrument sifatida e'tirof etilmoqda. Yashil soliq tizimini yanada rivojlantirish orqali atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faoliyatni iqtisodiy jihatdan tartibga solish, korxonalarni ekologik innovatsiyalarga rag'batlantirish va resurslardan samarali foydalanish jarayonini kuchaytirish mumkin. Hamda so'nggi yillarda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari korporativ boshqaruv va korxonalaridagi investitsion qarorlarining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. ESG ko'rsatkichlarining yaxshilanishi nafaqat korxonalarining barqarorligini, balki mamlakat miqyosida investitsion jozibadorlik va makroiqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlab beradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil soliq mexanizmlari ESG rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatib, uzoq muddatli iqtisodiy o'sish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda "yashil iqtisodiyotga o'tish" strategiyasi, yashil soliq elementlari va barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashuv jarayonlari jadal rivojlanib bormoqda. Shu jumladan, mamlakatda 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbaalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejash kabi masalalar asosiy maqsad qilib olingan.¹⁸ Mamlakatda amalga oshirilayotgan yashil soliq islohotlari atrof-muhitga yetkazilayotgan zararni kamaytirish uchun soliq tizimini ekologik toza ishlab chiqarishga yo'naltirishni o'zida aks ettiradi.

ESG — tabiatga g'amxo'rlik qilgan holda barqaror, ishonchli va uzoq muddatli foyda ko'rishdir. U faqatgina yirik korporatsiyalar uchun emas, bu tamoyillarni hatto kichik biznes ishtirokchilari ham oddiy qadamlardan boshlashi mumkin.¹⁹

Mamlakatda ekologik toza texnologiyalar orqali mahsulotlar yaratish, qayta tiklanuvchi energiya samaradorligi jarayonlari uchun soliq imtiyozlarini yaratishdan iboratdir. Biroq, mavjud soliq mexanizmlarining ESG rivojlanishiga ta'siri, ularning

18 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022 yildagi PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6303230#-6303450>


19 O'zbekiston Respublikasi ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi ma'lumoti. <https://gov.uz/oz/eco/news/view/55071>

makroiqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqligi hamda samaradorligini oshirish yo'nalishlari yetarlicha empirik tahlil qilinmagan. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi sharoitida yashil soliq maexanizmlarining ESG rivojlanishi va iqtisodiy o'sishga ta'sirini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanib kelinmoqda.

O'zbekiston sharoitida "yashil iqtisodiyot" strategiyasi doirasida aniq natijalarga erishilayotgan bo'lsa-da, ESG hisobotlari va xususiy investorlarni kengroq jalb qilish, huquqiy asosni takomillashtirish hamda malakali kadrlar tayyorlashda hali ko'plab ishlar qilish lozimligi ta'kidlanadi.²⁰

Ba'zi mamlakatlarda issiqxona gazlari chiqindilari kamaygan bo'lsa-da, energiya sarfi yuqori bo'lgan sanoat, global savdo, globalizatsiya va iste'mol jarayonlarinatisida ekologik bosimlar saqlanib qolmoqda va ekologik tizim salohiyatini sinovdan o'tkazishda davom etib bormoqda. Shu tufayli ham ba'zi rivojlangan mamlakatlarning ekologik barqarorlikni saqlash siyosati samarali boshqaruv tizimlari, texnologik innovatsiyalar va moliyaviy vositalarga ham bog'liq bo'ladi.²¹

Mamlakatlarda atrof-muhit barqarorligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli makroiqtisodiy omillar hamda texnologik jarayonlar iqtisodiy o'sish natijasida yuzaga keladigan ekologik ifloslanishni yumshatishi va ekologik innovatsion jarayonlar va mustahkam tartibga soluvchi tizim orqali atrof-muhit sifatini yaxshilaydi.²²



1-rasm. Soliq va ESG bog'liqligining asosiy jihatlari ²³

20 Savriddinova B. S. Esg mezonlari asosida yashil biznes modellarini moliyalashtirish: xalqaro tajriba va istiqbollar //shokh library.-2025.- t. 1. - №. 11. <https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/6245>

21 Raihan A, Bala S, Akther A, et al. Advancing environmental sustainability in the G-7: The impact of the digital economy, technological innovation, and financial accessibility using panel ARDL approach. Journal of Economy and Technology. 2024 <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2949948824000283>

22 Ofori EK, Appiah-Opoku S. Sustainable development goals in BRICS and G7 countries: Increasing accomplishments through policy synergies in four dimensions. Sustainable Development. 2023. https://openurl.ebsco.com/EPDB%3Agcd%3A14%3A29648446/detailv2?sid=ebsco%3Aplink%3Ascholar&id=ebsco%3Agcd%3A186635795&crl=c&link_origin=scholar.google.com

23 (Muallif tomonidan to'plangan ma'lumotlar asosida tayyorlandi).

Yangi paydo bo'layotgan adabiyotlarda ekologik barqarorlikka erishishda yashil texnologik innovatsiyaning ahamiyati ta'kidlanadi, chunki u tizimli o'zgarishlarga olib kelishi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi va atrof-muhitga yetkaziladigan zararni minimallashtirishi mumkin.²⁴

Yuqoridagi rasmda keltirilgan ma'lumotlar asosida, soliq siyosatining atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv masalalari bilan qay tarzda chambarchas bog'liqlik jarayoni haqida ba'zi noto'g'ri talqin va tushunchalarga oz bo'lsada baham berish mumkin. ESG qisqartmasi aks etmasa ham, ushbu tamoyillarning har birida soliq elementi markaziy o'rinni egallaydi. Masalan atrof-muhitga ta'sir qiluvchi soliqlar solish yoki ularni rag'batlantirish, shu jumladan, issiqxona gazlari chiqindilariga udlerod solig'i va yashil energiyani tashkil etish uchun soliq imtiyozlarini yaratish, yaqin kelajakda barqaror amaliyotlarni rivojlantirish uchun muhim omil sanaladi. Ijtimoiy element nuqtayi nazaridan olib qaralsa, soliqlar o'zaro faoliyat yuritadigan jamiyatlarga hissa qo'shishi va mas'uliyatli korporativ subyekt sifatida jamoatchilik a'zolari o'rtasida ishonchni mustahkamlashning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Soliq siyosatini to'g'ri boshqarish korxon va tashkilotlarning soliq strategiyasi qarorlari ustida tegishli nazoratni ta'minlashi, ularning umumiy biznes maqsadlari va soliq hisobotlari atrofidagi manfaatdor taraflar bilan aloqalariga mos kelishini ta'minlashi mumkin.

Soliq imtiyozlari subsidiyalar sifatida so'nggi bir necha yillar ichida ko'plab ESG siyosati va texnologiyalarini rivojlantirish uchun asosiy katalizator bo'lib xizmat qiladi. Ammo korporativ ESG va qiymat yaratish strategiyalarini ta'minlash jarayonida soliq siyosati minimallashtiriladi. Siyosatchilar uchun ESG samaradorligini oshirish vositasi sifatida yashil soliqlarning samaradorligi ularning makro darajada barqarorlikni ta'minlashdagi salohiyatini ta'kidlaydi. Energiya samaradorligi va yashil soliq o'rtasidagi bog'liqlik energiya tejamkorligi amaliyotini qo'llaydigan kompaniyalar soliq imtiyozlari yoki rag'batlantirishdan foyda ko'rishlari mumkinligini ko'rsatadi. Umumiy olib qaraganda, soliq siyosatini ESG tamoyillari bilan uyg'unlashtirish barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ekologik muammolarni kamaytirish va jamiyat farovonligini oshirishda asosiy o'rinni egallaydi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida soliq mexanizmlarini ESG tamoyillariga mos ravishda takomillashtirish mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois kelgusida soliq tizimida qilinadigan islohotlarda ekologik va ijtimoiy omillarni kengroq hisobga olish, yashil iqtisodiyot va investitsiyalarni rag'batlantirish hamda ESG standartlari asosida joriy etish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022 yildagi PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.* <https://lex.uz/ru/docs/-6303230#-6303450>
2. *O'zbekiston Respublikasi ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi ma'lumoti.* <https://gov.uz/oz/eco/news/view/55071>

24 Anaruma JFP, Jorge HCde O, Filho FA, et al. The first two decades of circular economy in the 21st century: A bibliographic review. Benchmarking: An International Journal. 2021;29:269 <https://www.emerald.com/bij/article-abstract/29/9/2691/513432/The-first-two-decades-of-Circular-Economy-in-the?redirectedFrom=fulltext>

3. Savriddinova B. S. Esg mezonlari asosida yashil biznes modellarini moliyalashtirish: xalqaro tajriba va istiqbollari //shokh library.–2025.– m. 1. – №. 11. <https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/6245>

4. Raihan A, Bala S, Akther A, et al. Advancing environmental sustainability in the G-7: The impact of the digital economy, technological innovation, and financial accessibility using panel ARDL approach. *Journal of Economy and Technology*. 2024 <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2949948824000283>

5. Ofori EK, Appiah-Opoku S. Sustainable development goals in BRICS and G7 countries: Increasing accomplishments through policy synergies in four dimensions. *Sustainable Development*. 2023. https://openurl.ebsco.com/EPDB%3Aagcd%3A14%3A29648446/detailv2?sid=ebsco%3Aplink%3Ascholar&id=ebsco%3Aagcd%3A186635795&crl=c&link_origin=scholar.google.com

6. Anaruma JFP, Jorge HCde O, Filho FA, et al. The first two decades of circular economy in the 21st century: A bibliographic review. *Benchmarking: An International Journal*. 2021;29:269 <https://www.emerald.com/bij/article-abstract/29/9/2691/513432/The-first-two-decades-of-Circular-Economy-in-the?redirectedFrom=fulltext>

ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ ВВП КАК ESG-ИНДИКАТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

Муслимова Фарангиз

*Самостоятельный соискатель ТГЭУ, кафедра
«Макроэкономическая политика и прогнозирование»*

В условиях глобального перехода к модели устойчивого развития повышение энергоэффективности экономики становится одним из ключевых факторов обеспечения долгосрочного экономического роста и экологической устойчивости. Одним из наиболее распространённых показателей эффективности использования энергетических ресурсов является энергоёмкость валового внутреннего продукта (ВВП), отражающая объём энергии, необходимый для производства единицы экономической продукции. Данный показатель широко используется в международной практике как индикатор структурных изменений в экономике, а также как важная составляющая экологического компонента ESG-критериев, отражающая уровень эффективности использования энергетических ресурсов в экономике.

Энергоёмкость ВВП (energy intensity, EI) — количество первичной энергии на единицу ВВП — является индикатором ЦУР 7.3 и ключевым «Е»-компонентом ESG-критериев. По данным МЭА (2023)[1] и Enerdata (2023)[2], уровень энергоёмкости экономики Узбекистана (около 10,9 МДж/\$) превышает средний показатель стран Европейского союза примерно в 4,5 раза, при этом страна демонстрирует один из наиболее высоких темпов снижения данного показателя — около –3,5 % в год.

Для стран с формирующейся экономикой, включая Узбекистан, повышение энергоэффективности имеет особое значение в условиях ускоренного экономического роста, структурной трансформации экономики и роста энергопотребления. В этой связи возрастает научная и практическая значимость комплексного анализа динамики энергоёмкости ВВП и факторов, определяющих её изменение на основе современных эконометрических методов.